

## O'ZBEKISTONDA SAYYOHLAR OQIMINING KESKIN KAMAYISHI VA KO'PAYISHIGA OLIB KELUVCHI OMILLAR

**Xolboyev Bekjon Ziyodulla o'g'li**

*Toshkent Xalqaro Kimyo Universiteti "Turizm" fakulteti 3-kurs talabasi*

*"Human resource management in hotel" fani o'qituvchisi:*

*Ilmiy rahbar: Hasanova Nargiza*

**Anotatsiya:** *Ushbu ilmiy maqolada O'zbekistonda bugungi kunda turistlar oqimini jadal rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar va ularning keskin kamayishiga olib keluvchi omillar aytib o'tiladi. Tadqiqot mobaynida: marketing sohasini sustligi, xizmat ko'rsatish tarmoqlarining talab darajasida emasligi va bizning o'lkamizni yevropaliklar xafli hudud sanashlarini ko'rishingiz mumkin.*

**Kalit so'zlar:** *Sayyohlar soni, turizm, statistika, marketing, xizmat ko'rsatish sohalari, mehmonxonalar, dunyo nigohi.*

### KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurishni o'zining asosiy maqsadi qilib belgilab oldi. Bu ishda turizm sohasi ham yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Turizm nafaqat o'tmishni o'rganish, o'zga xalqlar va elatlar bilan tanishish, ularning madaniy yodgorliklaridan bahramand bo'lish, shuningdek, u katta biznes hamdir. Mazkur faoliyatni yo'lga qo'yish esa mutaxassislarga bog'liq. O'zbekistonda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari qatorida turizm sohasining Markazlashgan Ma'muriy Boshqaruv tizimi 1971–1991- yillar davriga to'g'ri keldi. Bu davrda salbiy oqibatlar ham ko'zga tashlana boshladi. Qurilmay qolgan turistik-rekratsion maqsadidagi obyektlar sonining ko'payishi, mavjudlarida esa mijozlarga ko'rsatilgan xizmatlarning sifati bo'yicha ko'plab e'tirozlar paydo bo'la boshladi. Ijtimoiy tadqiqotlarga ko'ra mehmonxonalar, turbazalar, dam olish uylari hamda pansionatlar tomonidan taklif qilinadigan 50 foizgacha bo'lgan barcha xizmatlar fuqarolarning noroziligini keltirib chiqargan. Joylashtirish va ovqatlantirish xizmatlari bilan birga hordiq chiqarish va tibbiy xizmat ko'rsatish talab darajasida bo'lmagan. Turistik xizmat turlari va hajmi sezilarsiz va sifatsiz bo'lgan. Barchamizga ma'lumki, dunyo mamlakatdari iqtisodiyotining katta bir qismini tashkil etuvchi turizm, davlatlar uchun mo'may daromad olib kelmoqda. Demak dunyo sayyohlar tashrifidan manfaatdor. Shuning bilan birga O'zbekistonda ham sayyohlarni jalb qilish va turizmni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Albatta sayyohlar o'z-o'zidan ko'payib qolmaydi. Ularni jalb qilish uchun yirik investitsiya va turli xil konferensiya tadbirlarini tashkil qilish va shu yo'l bilan O'zbekiston o'zining brendini tanitishi kerak bo'ladi. Davlat rahbarining topshirig'i bilan xorijiy mamlakatlardagi elchilarimizga davlatimizning madaniyati va urf-odatlarini tanitish va targ'ib qilish yuklatildi. O'zbekiston hukumati uch yil ichida sayyohlar tashrifini yiliga 10 million nafargacha yetkazishni rejalashtirgan. Bu

gaplarni endi amalda qo'llashimiz darkor. Biz sayyohlar kelishini ham, ular o'z pullarini bizning vatanimizda sarflashini ham istaymiz. 2015 yilda sayyohlar butun dunyo bo'ylab 1,2 trillion dollar daromad keltirishgan. O'zbekistonga bu bozorning atigi 0,2 foizigina tegishli.

Nega ahvol bunday? Shunday mamlakatlar borki, sayyohlik kontentini o'ylab topishga majbur, chunki ularda tomosha qiladigan narsaning o'zi yo'q. Bizda esa hamma narsa bor: juda yaxshi saqlangan qadimiy shaharlar, buyuk tariximiz, mehmonnavozligimiz. Mamlakatimizda yurish xavfsiz. Bizning taomlarimiz juda arzon va xushxo'r. Lekin nimadir bo'layaptiki, g'ildiraklar aylanmayapti, turistlar biz tomon ko'p ham shoshilishmayapti.

Turistlar tashrifi statistikalarda:

Bosh vazir o'rinbosari Aziz Abduhakimovga asoslanib, Kun.uz muxbiri xabar bermoqda. Abduhakimovga ko'ra, 2019 yilning 10 oyi davomida mamlakatga 5,5 mln nafar turist kelgan. Bu – o'tgan yilning shu davriga nisbatan 26 foizga yuqori ko'rsatkichdir.«Jadal harakatlar natijasida 2023 yilgacha sayyohlar oqimini 10 millionga yetkazishni rejalashtirganmiz. Bunga qanday erishamiz? Albatta, yirik xalqaro tadbirlarning o'rni bu yerda ahamiyatli. Agar 2016-yilda xorijdan 1,3 million turist kelgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2017-yilda 2,7 million nafarni tashkil qiladi. — Sayyohlar soni 2019-yil yakuni bo'yicha yanada ortib, 6,4 million nafarga yetadi, — deydi O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari Aziz Abduhakimov "Ipak yo'lida turizm" yigirma beshinchi Toshkent xalqaro turizm ko'rgazmasi oldidan tashkil etilgan matbuot anjumanida. — 2023-yilga borib esa sayyohlar soni 10 milliondan oshishi kutilmoqda. Shunday ekan zamonaviy mehmonxonalar sonini oshirishimiz kerak. Barcha xizmatlar bilan ta'minlagan holda.Darhaqiqat, anjumanda aytilganidek, 2019-yilning o'zida 220 ziyod mehmonlarni joylashtirish obyektlari foydalanishga topshirilayotgan bo'lsa, shundan 60 dan ziyodi yirik mehmonxonalar ulushi to'g'ri keladi. Kelgusi yilda esa 300 ta shunday loyiha amalga oshirilishi ko'zda tutilmoqda.Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakat turizm salohiyatini jadal rivojlantirish yuzasidan videoselektor yig'ilishi boshlandi.Bu borada qabul qilingan choralar katta natijalar berishni boshlagani ta'kidlandi. 2022 yilda tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 2021 yilga nisbatan 3 baravarga oshdi (5,2 million, soha eksporti – 1,6 milliard dollar). 1-rasmda bu ko'rsatgichlar o'z isbotini topgan.Ichki turizm dasturlari doirasida 11,5 million, shundan 1,5 million ehtiyojmand aholi, yoshlar va keksalar sayohatlari tashkil etildi. Samarqandda yangi turizm markazi barpo etilgani qo'shimcha 2 million sayyoh jalb qilish imkonini berdi. Bu yili Butunjahon turizm tashkilotining Bosh assambleyasi yig'ilishini o'tkazishga katta tayyorgarlik ko'rilmogda. Bundan tashqari

2023-yilda Samarqand



1-rasm: 2022-yilda tashrif buyuruvchilar soni.

Butunjahon turizm poytaxti maqomini olgan. Bu kabi ishlarning barchasi albatta mamlakat nomini dunyoga tanitish va iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan. Tashrif buyurayotgan sayyohlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishimiz zarur. Marketingni ming zo'r qilganimiz bilan ichki muhit yomon bo'lsa, turizmni rivojlantirgandan foyda yuq. O'zbekiston katta tarixiy-madaniy merosga – 7300 dan ortiq qadimiy-me'moriy va arxeologik obidalarga ega. Ularning ko'pchiligi Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo'qon va Toshkent shaharlarida joylashgan. Yurtimizdagi 200 dan ziyod tarixiy yodgorlik va obidalar YuNeSKOning madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Nahotki shuncha tarixiy va boy madaniy meroslarimiz bo'la turib, ularni dunyoga tanita olmasak? Buning uchun bizda arzigulik va maqtagulik boy tarixiy merosimiz yetarli. Birgina Fransiyaning Parij shahriga yiliga 15 million sayyoh tashrif buyurar ekan. Biz esa har yili sayyohlar sonini sanashdan, o'tgan yildagidan biroz ko'paygan bo'lsa, uni baralla ovoza qilishdan nariga o'tmayapmiz. Nahotki yirik bir sayyohlik salohiyatiga ega davlat bo'la turib, bitta shaharchalik natijaga erisha olmasak? Mamlakatimizning betakror tabiati, go'zal dam olish maskanlari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo'nalishlar ochish mumkin. Bu sohaga jahon brendlarini faol jalb etgan holda, biz ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bu borada davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini qo'llash sohani taraqqiy ettirishda keng imkoniyatlar ochishini hisobga olishimiz lozim. Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilish dasturini rivojlantirish va jadallashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi katta imkoniyatlarni ham to'liq ishga solish lozim». Davlat rahbarining yurtimizda barcha sohalar



qatorida turizmga ham katta e'tibor qaratishi bu sohada ko'zga tashlanib kelinayotgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish choralarini jadallik bilan amalga oshirilishida dasturulamal bo'lib xizmat qilishi shubhasiz. O'zbekiston yirik turizm salohiyatiga ega mamlakatlar qatorida o'z o'rnini va ahamiyatiga ega ekan, demak biz mavjud imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanishimiz kerak. Bu bilan nima demoqchimiz, ya'ni yurtimizda to'rt iqlim hukmron. Boshqa mamlakatlardak bitta yoki ikkita iqlim bilan cheklanmagan. Shunday ekan sayyohlarni faqat yoz oylarida tashrif buyurishini kutmasdan, boshqa fasllarda ham ularni jalb qila oladigan hududlar va joylar yaratishimiz kerak. Ayniqsa marketing bugungi kunda oqsayapti. Turistlarni jalb qilishda kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Xususan, bugungi kunda yurtimizga tashrif buyurayotgan aksariyat sayyohlar turizm firmalari tomonidan jalb etilmoqda. Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarida O'zbekiston haqida aholida yetarlicha ma'lumot yo'q. Ular aynan turfirmalar orqali eshitib, qiziqish bildirib kelishmoqda.

Xizmat ko'rsatish sohalarining talab darajasida emasligi:

Yurtimiz jahon sayyohlik bozorida o'z o'rniga ega bo'lishiga qaramasdan, turistlarga qulay sharoit yaratish, servis xizmatini yaxshilash, sayyohlik obidalarining jozibadorligini oshirish va reklamani kuchaytirish darajasi juda past. Shuning uchun bu borada sezilarli o'sish haqida fikr yuritish ana shu omillarga bog'liq. - «O'zbekiston havo yo'llari» bilan kelishgan holda, aviabiletarni onlayn xarid qilishni yo'lga qo'yib, shaffof onlayn xizmat ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish taklifi ham juda dolzarb masala. Rivojlangan mamlakatlarda aviakassa tushunchasi kundalik hayotda hech qachon ishlatilmaydigan so'z. Turizm taraqqiy etgan biror bir davlatda hech kim aviakassaga borib aviachipta xarid qilmaydi. Biror mamlakatga borgisi kelgan odam uyini tark etmagan holda hamma ishlarini kompyuterdan turib bajaradi. Ko'pgina yevropaliklar so'rashadi: «Nega sizlarda «O'zbekiston havo yo'llari» rasmiy veb-sahifasidan onlayn chipta sotib olishning imkoni yo'q?», deb so'rashadi. Agarda reys amalga oshmay qolsa, aviakompaniya veb-sahifasida bu haqda hech qanday ma'lumot berilmaydi. Agarda bu yo'nalishda ham islohotlar olib borilsa, yurtimizga tashrif buyuruvchi sayyohlarning soni keskin oshadi. - «O'zbekiston temir yo'llari»da ham biletlarni onlayn sotib olish tizimini yana ham mukammallashtirilsa, nur ustiga a'lo nur bo'lardi. Qolaversa, «Afrosiyob» tezyurar poyezdiga yirik sayyohlik guruhlariga biletlarni sotib olish ancha mushkul ish. 40 kun qolganda tizimda biletlarni sotib olish imkoni bo'ladi. Lekin kassaga borsang, biletlar soni allaqachon cheklangan. Mehmonxonalarimiz ham maqtagulik darajada emas. Lekin sezilarli darajada o'sgan bugunga kelib. Raqamli marketing asrida yashayapmiz. Har bir mehmonxonalarda texnologiyalarni rivojlantirish kerak. Besh yulduzli mehmonxonalar soni bizda jahon reytingi uchun hali mavjud emas. Yirik investirlarni chorlab, brend mehmonxonalar filiallarini ochish darkor. Yangi qurilayotgan mehmonxonalarni soliq to'lov muddatlari va ularni tiklanguniga qadar moliyaviy yordam masalariga imkon qadar yordam zarur. Chet el brendi ostidagi mehmonxonalarni huquq va imtiyozlarini paymol qilmaslik va sherikchilikni yaxshi yo'lga qo'yish, biz uchun ertangi turizmni rivojlanishidan darak beradi. Bugungi kunda turistlar uchun mustaqil sayohat qilish tartibi shakillangan. Bizda esa bunaqa tushuncha yuq. Mustaqillik maydoniga chiqing va biroz kutib turing. Siz albatta bir guruh bechora sayyohlar guruhiga duchor bo'lasiz. Oftobning jaziramasida ostida ular

maydondagi favvoraning diametri haqidagi hikoyani tinglashmoqda. Ular mana shunday sayyohlik haqida orzu qilishgan, deb o'ylaysizmi? O'zingiz ham ta'tilingizda to'daning ichida yurishni xohlarmidingiz? Sayyohlar bunaqasini aslo istamasliklarini aytishadi. Biroq boshqa imkoniyat yo'q. O'zbekistonga kelish uchun ular sayyohlik agentliklari xizmatidan foydalanishga majbur. Sayyohlik agentliklarida individual turlar juda qimmat, shu sababli guruhlar juda mashhur. 2014 yilda UNWTO O'zbekistonda bo'lib qaytgan sayyohlar o'rtasida so'rov o'tkazgan. Ularning 62 foizi oldindan to'langan, tashkillashtirilgan guruh tarkibida kelishgan — mustaqil ravishda emas. Sayyohlarga mamlakatimizga qay tarzda sayohat uyushtirilishini istar edingiz, deb savol berilgan. Fikrlar turlicha bo'lgan, lekin ularning ichida eng ko'p takrorlangani: «Menga sayohat qilish va sayohat davomida qarorlarni mustaqil qabul qilish yoqadi, yo'lboshlovchi bilan birgalikda mahalliy aholi bilan ko'proq uchrashishni, jonli muloqotda bo'lishni istayman», bo'lgan. So'ralganlarning 32 foizi shu variantni yoqlashgan. So'rovnomada qatnashganlarning deyarli yarmi 55 va undan katta yoshda bo'lishgan. Agar ularning o'rnida yoshlar bo'lishganida ular shu variantni bir ovozdan qabul qilishgan bo'lishardi.

### **YEVROPALIKLARNING O'ZBEKISTON HAQIDAGI TASAVVURLARI**

Biz xohlaymizmi yuqmi sovet davlatlari qatoriga kiramiz. Bizning joylashgan joymiz ham o'ta muhim ahamiyatga ega. Yevropaliklarning aksariyati O'zbekiston Afg'oniston bilan chegaradosh mamlakat bo'lgani bois sayohat qilish uchun juda xavfli hudud, deb hisoblashadi. Eng fojiali tomoni shundaki, aholining ayrim qatlamlari O'zbekistonni hali ham Rossiyaga tobe' mustamlaka mamlakat, deb bilishar ekan. Dunyo tamadduniga ulkan hissa qo'shgan buyuk sarkarda va davlat arbobi, sohibqiron Amir Temur barpo etgan qudratli Mavorounnahr saltanatining dovrug'i o'rta asrlarda butun dunyoga mashhur bo'lgan. Shunday ekan, o'sha saltanatning bugungi zamonaviylik kasb etgan ko'rki va tarovatini yanada kengroq targ'ib qilish, targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish, xorijlik sayyohlarni yanada kengroq jalb etish bugungi kunning eng dolzarb masalasi hisoblanadi. Biz bu tamg'adan tezroq qutilib jahonda o'z o'rnimizga ega bo'lishimiz darkor. Turistlarni bunday xavfsirash huquqidan mahrum qilmaslik kerak. Albatta, ochiq mamlakat imiji vaqt o'tishi bilan ularning bunday xavotirlarini yo'qqa chiqaradi. Hoziroq turistik politsiya tashkil etib, uni bartaraf qilish mumkin. Buning uchun keng ko'lamli ish kerak emas. Boshlamasiga, har bir turistik shaharga 10 nafar ingliz tilida so'zlasha oluvchi xodim va ikki-uch mashina yetarli. Bu politsiyaning telefon raqami har bir turistik veb-saytlar, samolyotda va aeroportlarda bo'lishi kerak. Ularning avtomobillari sayyohlar gavjum joylarda turishi kerak. Koll-sentrdagilar esa 4-5 tilda gapira olishlari lozim. Turist bilishi kerakki, agar o'sha o'zi qo'rqqan «mabodo» sodir bo'lsa kamida inglizcha so'zlasha oladigan mehribon kishilar yordamga kelishadi. Bunday xizmatning byudjeti unchalik katta emas, lekin psixologik effekti — million dollarlik. Yana bir narsa: turistik politsiya turistlarga birga selfiga tushishlari uchun indamay ruxsat berishi kerak.

**TADQIQOT METADOLOGIYASI:**

Ushbu ilmiy maqolaning ilmiy yo'nalishini nazariy-uslubiy jihatdan tadqiq etishda ilmiy kuzatuv usulidan foydalanilgan bo'lsa, turistlar sonini oshirishga qaratilgan mulohazalar esa muammo va rivojlanish istiqbollarini o'rganishda analiz va sentiz usulidan foydalanildi.

Xulosa va takliflar:

Taxlil natijalari shuni ko'rsatadiki, hech narsa qilmasdan hech narsaga erishib bo'lmaydi. Biz qancha ko'p harakat qilsak, natija shuncha bo'ladi. Sayyohlar ham osmondan kelib qolmaydi. Ularni jalb qilish uchun qo'ldan kelgan barcha ishni qilish kerak. Ushbu ilmiy maqola sayyohlarni qanday qilib jalb qilish masalariga imkon qadar alohida to'xtaldi. Xulosa va takliflar quyidagilar:

□Guruh emas, inson

Fikrlashni o'zgartirish kerak: sayyohlik kompaniyalari va ularning oladigan daromadi haqida o'ylashni yig'ishtirish kerak. Sayyohni pul to'la qop deb tasavvur etishdan voz kechish lozim. Bizga har qanday daromadga ega turistlar kerak. Faqat inson haqida, uni nimalar qiziqtirishi borasida o'ylamog'imiz kerak.

□Vizalar

Viza tizimini soddalashtirmasdan turib, keyingi punktlarni ko'rib o'tirishning ham hojati yo'q. Mustaqil turist ayni paytda sayyohlik agentligisiz viza ololmaydi. UNWTONing yuqorida aytib o'tilgan so'rovnomasida sayyohlar vizani qo'lga kiritish murakkabligi va umumiy byurokratizmni eng asosiy salbiy taassurotlaridan biri, deb baholashgan.

Turizmni rivojlantirish konsepsiyasida bu jarayonni erkinlashtirish haqida biror jo'yali rejaga ko'zim tushmadi. Men, masalan, bu masalaning quyidagi tarzda yechilishini orzu qilaman:

- «A» toifadagi mamlakatlar vakillari 30 kunga vizasiz kirib chiqishadi;
- «V» toifadagi mamlakat vakillari saytda anketa to'ldirib, 5-7 kun ichida javob olishadi va yurtimizga yetib kelgach, aeroportda 30 dollarga viza olishadi;
- «S» toifadagi mamlakat vakillari vizani elchixonamizdan olishadi.

Mamlakatlarni toifaga bo'lish ularga nisbatan ishonchimiz va milliy xavfsizlik talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Biroq «A» kategoriyaga eng ko'p sayyohlar keladigan davlatlar bo'lmish «katta beshlik» — Xitoy, AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya va Fransiya kiritilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ishonamanki, bunday choraning joriy etilishi mamlakatimiz tarixida burilish nuqtasi bo'ladi. Bu bizning ochiqligimiz va mehmonnavozligimiz haqida juda kuchli signal bo'ladi. Turistlar garchi hozircha qimmatroq bo'lsa ham, hamma joyda qulayliklar yaratilmagan bo'lsa ham, darhol yoppasiga kela boshlashadi. Ana shunda keyingi vazifalarni hal qilishga o'tilsa bo'ladi.

Qayddan o'tishni bekor qilish

O'ylaymanki, amaldorlarimizning birortasi yurtimizga kelgan yevropalikning «Registratsiya nima o'zi?» degan savoliga javob berib ko'rish baxtiga muayassar bo'lishmagan. Unga javob berib, tushuntirish juda qiyin. Bu bir parcha qog'oz milliy



xavfsizligimizga qay tarzda yordam berishi va umuman, nega u yordam berishi kerakligini tushuntirish juda qiyin. Shu sababli u bo'lmashligi kerak. Turist qayerda xohlasa, o'sha yerda yashashi kerak. Mehmonxonada bo'ladimi, Airbnb orqali ijaraga beriladigan odamlarning xonadonida bo'ladimi, kauchsyorferlarning uyidami yoki nihoyat, do'stlari bilan biror chodirdami... Ha, bu mehmonxonalarning daromadlariga zarba berishi mumkin. Lekin biz alohida bir guruh tadbirkorlarning emas, butun mamlakatning iqtisodiy manfaat topishi haqida gaplashayapmiz-ku?!

Konsepsiya loyihasida qaydga olishni osonlashtirish haqida gap boradi, lekin tashkillashtirilgan sayyohlik guruhlar uchun. Bu yetarli emas. Turistga o'ziga qulay joyda yashashga qo'yib bering, shunda u pullarini sarflash uchun keladi.

➤ Arzon turar joy

Mehmonxonamizdagi narxlar har doim osmonda bo'lgan. Xo'sh, islohotdan keyin nima bo'ldi? Men uchun kelgan mehmonimga bu narxlarni aytish juda uyatli. Toshkentdagi mehmonxonadagi bir xona uchun 70 dollar, holbuki nonushtasi bilan uning eng baland narxi 35 dollardan oshmasligi kerak. Hozircha bizda hech kim Vetnamdagidek, 7 dollarga alohida xonalarni kutayotgani yo'q. Lekin tanlov 10 dollardan boshlanishi kerak.

➤ Internet

Turistlar o'z fotosuratlarini Facebook va Instagram'ga qo'yishni istashadi. Qachondir emas, hoziroq, shu damda, «Buxoro» restoranida osh yeb o'tirgan paytida. Wi-Fi tarmoqlarini rivojlantirish uchun juda ko'p g'oyalar bildirilgan, lekin ularning birortasi keraklisi emas. Sim-kartalarni soddalashtirilgan usulda xarid qilish tizimi yaratilishi kerak. Hozir ulanish uchun xorijlikka negadir uyali aloqa operatorining bosh ofisiga borishiga to'g'ri keladi. Xorijliklar uchun sim-kartalar barcha dilerlik nuqtalarida sotilishi lozim. Yaxshisi, ko'proq internet, kamroq so'zlashuv kabi soddaturistik tariflar o'ylab topilmog'i, bularning barchasi 10 dollardan ko'p bo'lmashligi lozim. Aeroportda sim-kartani sotib ol-da, foydalanaver.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.I.S. Tuxliyev, R.Hayitboyev, B.Sh. Safarov, G.R.Tursunova. Turizm asoslari. –T.: «Fan va texnologiya», 2014, 7-bet Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda – T.: O'zbekiston, 1999. Tuxliyev I. S. va boshqalar. Turizm asoslari. O'quv qo'llanma (uchunchi nashri). – Samarqand: SamISI, 2010.

2.S. Tuxliyev., B Sh. Safarov Turizm asoslari: O'quv qo'llanma – 2012. 6-b

3. M.T. Aliyeva, Xo'jayev O'.x., Norchayev. AN. Turizm rivojlanishini prognozlash. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2006.

4. M.T. Aliyeva, Xo'jayev O'.x., Norchayev. AN. Turizm rivojlanishini prognozlash. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2006.